


4-sinf savollari

- 1 (3,1 ball) Balto quyidagi labirintning kirish joyidan kirib chiqish joyidan chiqib ketishi kerak. Bunda u rasmda ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha harakatlana oladi. Agar Balto yo'lida uchragan suyaklarni olsa, u eng ko'pida nechta suyak to'plashi mumkin?




- A) 14    B) 12    C) 13    D) 29

- 2 (3,1 ball) Jamshid 14:59 da uxlashga yotdi. Bu shunday vaqtiki undagi vaqtni ifodalovchi ketma-ket kelgan raqamlar o'sish tartibida. U yana shunday xususiyatga ega bo'lgan vaqtda uyg'ondi. Jamshid eng kamida nechta daqiqa uxlagan bo'lishi mumkin?

- A) 466    B) 624    C) 1295    D) 526


- 3 (3,1 ball) Quyida berilgan birlik kublardan tashkil topgan jismlarning qaysi biri boshqasidan farqli?



- 4 (3,1 ball) Bir sport do'koniga hammasi bo'lib 6 ta futbol va 7 ta basketbol to'plari keltirildi. Ularning har biri qizil yoki ko'k rangda. Bunda to'plarning 4 tasi qizil rangda emas. Futbol to'plarining eng kamida nechtasi qizil rangli bo'lishi mumkin?

- A) 2    B) 3    C) 4    D) 5

- 5 (3,1 ball) Quyida berilgan 4x4 jadvalning ba'zi kataklari ko'k, sariq va yashil rangga bo'yalgan. Bu jadvaldagi kamida nechta oq kataklarni bo'yaganda bu shakl kamida 1 ta simmetriya o'qiga ega bo'ladi?



- A) 3    B) 4    C) 5    D) 6

- 6 (4,2 ball) Ilmiy laboratoriyada 5 ta “Aero” va 4 ta “Bolt” dronlari ishlamoqda. “Aero” dronining 4 ta platformasi bor. Biroq, bir platformasi muvozanat saqlash uchun doim bo‘sh turadi, qolganlarida esa 3 tadan kapsula tashiydi. “Bolt” dronining 2 ta platformasi bor va har bir platformasida 5 tadan kapsula tashiydi. Barcha dronlar ko‘pi bilan nechta kapsula tashiy oladi?  
A) 85    B) 90    C) 95    D) 100


- 7 (4,2 ball) Idishdagi olmalarning  $\frac{1}{4}$  qismini Xolid, qolganining  $\frac{1}{3}$  qismini Ubay, undan ham qolgan olmalarning  $\frac{1}{2}$  qismini Abubakr oldi. Agar eng oxirida Ayyub qolgan barcha olmalarni olgan bo‘lsa, kim eng ko‘p olmalarni olgan?  
A) Ubayda            B) Abubakr  
C) Ayyub            D) Barchasi bir xil miqdordan olishgan

- 8 (4,2 ball) Nodir va Sardor soat 12:51 da onlayn muloqot qilishga kelishdilar. Ularning ikkalasida ham bir xil elektron soat bor. Biroq, Nodirning elektron soati teskari turgan edi. Ularning ikkalasi ham elektron soati bo‘yicha kelishgan vaqtda onlayn bo‘ldilar. Natijada Sardor Nodirni qancha vaqt kutib qolgan?  
Elektron soatdagi raqamlar rasmda ko‘rsatilgan.



- A) 120 minut    B) 140 minut    C) 150 minut    D) 180 minut
- 9 (4,2 ball) Tipratikan va quyon yugurish estafetasida qatnashishyapti. Estafeta 09:20 da boshlangan. Tipratikan estafeta tayoqchasini yo‘lning o‘rtasida quyonga berdi va quyon marraga 09:44 da yetib keldi. Agar tipratikanning tezligi quyonnikidan 3 marta kam bo‘lsa, u estafeta tayoqchasini soat nechada quyonga bergan?  
A) 09:26    B) 09:38    C) 09:28    D) 09:36



- 10 (4,2 ball) Quyidagi rasmda raqamlarning nechtadan gugurt cho‘pidan iborat ekanligi ko‘rsatilgan:




- 13 ta gugurt cho‘pidan foydalanib, ikkita ikki xonali son tuzildi. Bu sonlar ko‘paytmasi eng kamida nechaga teng bo‘lishi mumkin?  
A) 198    B) 168    C) 182    D) 170

- 11 (5,3 ball) Stolda ikkita bir xil to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi qog‘oz bor. Usmon birinchi qog‘ozni qaychi bilan kesib, perimetrlari yig‘indisi 500 ga teng bo‘lgan ikkita to‘g‘ri to‘rtburchakka ajratdi. Umar ikkinchi qog‘ozni qaychi bilan kesib, perimetrlari yig‘indisi 700, ayirmasi esa 60 ga teng bo‘lgan ikkita to‘g‘ri to‘rtburchakka ajratdi. Umar hosil qilgan katta bo‘lakning yuzi kichigidan necha marta katta?  
A) 2    B) 3    C) 4    D) 5

#### 4-sinf savollari

- 12** (5,3 ball) Do'konda jami 10 ta qalam bor. Ulardan 9 tasi bir xil narxda, bittasi esa boshqalaridan qimmat. Barcha qalamlarning umumiy narxi 210 so'm. Akmal ushbu do'kondan 3 ta qalam sotib olgach, do'konda qolgan qalamlarning umumiy narxi dastlabki narxidan 147 so'mga kamayib qoldi. Qimmat qalamning narxi necha so'm?  
A) 105    B) 51    C) 129    D) 115
- 13** (5,3 ball) Doston va Sirojiddin bog'dagi to'g'ri yo'lakning bir uchidan ikkinchi uchiga borib, ortga qaytishmoqchi. Doston yo'lakning ikkinchi uchiga yetib borganida, Sirojiddin hali yo'lakning o'rtasidan 4 metr o'tgan edi. Doston orqaga qaytib yo'lakning o'rtasiga kelganida, Sirojiddinning yo'lakning ikkinchi uchiga yetib borishiga hali 10 metr bor edi. Yo'lakning umumiy uzunligi necha metr?  
A) 44    B) 48    C) 56    D) 64
- 14** (5,3 ball) Nodirda beshta har xil muntazam ko'pburchak bor: uchburchak, kvadrat, beshburchak, oltiburchak va sakkizburchak. Ularning tomonlari uzunliklari santimetrlarda o'lchanganda natural sonlar bilan ifodalanadi. Nodir ushbu shakllarni ikki xil usulda tartiblab chiqdi: Tomonlarining uzunligi bo'yicha:
- 
- Perimetrlari bo'yicha:
- 
- Agar muntazam uchburchakning tomoni 44 cm teng bo'lsa, muntazam sakkizburchakning tomoni uzunligini toping(cm).  
A) 20    B) 25    C) 30    D) 35
- 15** (5,3 ball) Jasur o'z kompyuteri uchun yetti xonali sonlardan iborat maxfiy kod o'yladi. U shuni sezdi, bu kodda ixtiyoriy 5 ta ketma-ket kelgan raqamlar yig'indisi 16 ga, ixtiyoriy 6 ta ketma-ket kelgan raqamlar yig'indisi esa 20 ga teng. Jasur o'ylagan yetti xonali kodning barcha raqamlari yig'indisini toping.  
A) 24    B) 26    C) 28    D) 32
- 16** (7,4 ball) Xumora, Malika va Jasur bir kafeda tushlik qilishdi. Ularning har biri bittadan ichimlik, asosiy taom va desert buyurtma qildi va har biri 24000 so'mdan pul to'lashdi. Bunda:
- Xumora 5000 so'mlik ichimlik sotib olgan,
  - Malika 7000 so'mlik ichimlik sotib olgan,
  - Jasur 6000 so'mlik desert sotib oldi,
  - Har bir kishi sotib olgan asosiy taom narxi bir xil.
- Ichimliklar uchun sarflangan jami pul desartlar uchun sarflangan jami puldan 3000 so'mga kam. Xumora desert uchun qancha pul to'lagan?

- 17 (7,4 ball) Muslimada rasmda ko'rsatilganidek 12 ta pazl bo'lagi bor. U ushbu bo'laklardan ba'zilarini birlashtirib, to'g'ri to'rtburchak hosil qilmoqchi. Buning uchun u eng ko'pi bilan nechta pazl bo'lagini



ishlata oladi?

- 18 (7,4 ball) Ikki qorovul — Botir va G'ayrat binodagi tartib bilan raqamlangan xonalarning eshiklarini qulflashga kirishdi. Botir 1-xona eshigidan, G'ayrat esa binoning oxirgi xonasi eshigidan qulflab chiqishyapti. Navbatchilik boshlanganidan 40 minut o'tgach, Botir 21-xonaga, G'ayrat esa 61-xona eshigiga yetib keldi. Agar yana 50 minutdan so'ng ular bitta xona eshigi oldida uchrashishgan bo'lsa, binoda jami nechta xona bor?

- 19 (7,4 ball) Nodir raqamlar yozilgan kvadratlar yordamida rasmda ko'rsatilganidek 9 ta ustun yasadi. Dastlabki holatda har bir ustun faqat bir xil raqamlardan tashkil topgan (masalan, birinchi ustunda faqat birlar, ikkinchisida esa faqat ikkilar va hokazo).

1									
1	2								
1	2	3							
1	2	3	4						
1	2	3	4	5					
1	2	3	4	5	6				
1	2	3	4	5	6	7			
1	2	3	4	5	6	7	8		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	

Nodir har bir qadamda bu shakldagi istalgan ikkita kvadratning o'rnini almashtirishi mumkin. Har bir ustundagi raqamlar turli xil bo'lishi uchun u eng kamida nechta qadamlarni bajarishi kerak?

- 20 (7,4 ball) Uch xonali sonning barcha raqamlarining o'rta arifmetigi aynan shu sonning o'nli yozuvida ishtirok etsa, bunday sonni "Muvozanatli" son deb ataymiz. Misol uchun: 426 sonining raqamlari o'rta arifmetigi  $(4+2+6):3 = 4$  ga teng. 4 raqami shu sonning yozuvida bor. Demak, 426 "muvozanatli" son. Jami nechta shunday uch xonali "muvozanatli" sonlar mavjud?